

SH A R T N O M A № -5

(Joriy ta'mirlash)

«20» sentyabr 2022 yil

Kitob tumani.

Keyingi o'rnlarda "Buyurtmachi" deb yuritilgan **Kitob tumani Tibbiyat birlashmasi boshlig'i v/b Z.Hayrullaev** bir tomonidan va Nizom asosida ish yurituvchi va keyingi o'rnlarda "Bosh pudratchi" deb yuritiladigan **Kitob tumani "BOOND"** hususiy korhonasi nomidan rahbar B.Muminov ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagi mazmunda tuzdilar

1. SH A R T N O M A M A Z M U N I.

1.1. "Bosh pudratchi" mazkur shartnomada shartlariga ko'ra "Buyurtmachi" balansida bo'lgan **Tibbiyat birlashmasiga qarashli Ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi (bolalar bo'limi)** loyiha-smeta hujjatlari asosida joriy ta'mirlash ishlarini bajarib berishni o'z zimmasiga oladi.

1.2. "Buyurtmachi" esa "Bosh pudratchi"ga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni, tegishli loyiha hujjatlari bilan ta'minlash, bajarilgan joriy ta'mirlash ishlarini tegishli tartibda qabul qilib, to'lov ishlarini amalga oshirish majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

1.3. Obyektda joriy ta'mirlash ishlarini bajarish **muddati "20" sentyabr 2022-yildan "30"-noyabr 2022-yilgacha.**

2. SH A R T N O M A B A H O S I.

2.1. Mazkur shartnomada bo'yicha "Bosh pudratchi" tomonidan bajariladigan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga oлган holda **726036519 (Etti yuz yigirma olti million uttiz olti ming besh yuz un tuqqiz) so'm**.

2.2. Qurilish bahosi va muddati mazkur shartnomada nazarda tutilishi mumkin bo'lgan qurilish hajmining oshishi yoki kamayishini joriy ta'mirlash ishlari bajarilgunga qadar hukumat qaroriga ko'ra qiyamatliklar o'zgartirilganligini fors-major holatlarini istisno etgan holda qat'iy sanaladi.

2.3. Tegishli asoslar mavjud bo'lgan taqdirdagina shartnomada bahosiga oid o'zgartirishlar shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

3. SHARTNOMA BO'YICHA TOMONLARNING HUQUQ MAJBURIYATLARI.

"Bosh pudratchi":

3.1. "Bosh pudratchi"ning huquqlari:

3.1.1. Bajarilgan ish uchun oldindan avans xaq to'lanishini va ishni bajarib topshirgandan so'ng to'la hajmda hisob kitob qilinishini talab qilish;

3.1.2. Bajarib berilgan ishni qabul qilib olish asossiz ravishda rad etilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilish;

3.1.3. «Pudratchi»ning shartnomada ko'rsatilganidan boshqa huquqlari

3.2.1. Barcha joriy ta'mirlash ishlarini mazkur shartnomaga ilova qilingan loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan hajmda va belgilangan muddatda o'zining kuchlarini yoki jalg qilingan uchinchi shaxslar yordamida bajarish hamda shartlariga ko'ra "Buyurtmachi"ga topshirish.

3.2.2 O'zi jalg qilgan uchinchi shaxslar tomonidan bajarilgan joriy ta'mirlash ishlari sifatiga, muddati uchun javobgar bo'lish.

3.2.3. "Buyurtmachi"ni o'zi bilan uchinchi (Sub pudratchi) shaxslar o'rtasida tuzilayotgan shartnomada haqida xabardor qilish.

3.2.4 "Buyurtmachi" yetkazib bergen va o'z kuchi mablag'i evaziga tashib keltirilgan qurilish materiallari va konstuktiyalarini ularga zarar yetmagan holda saqlash.

3.2.5. Joriy ta'mirlash ishlari bajarilayotgan obyektda ekalogiya va tozalikka rioya etgan holda texnika va yong'in xavfsizligi tadbirlarini ta'minlash.

3.2.6. O'zi tomonidan keltirilgan qurilish materiallarining loyihada nazarda tutilgan talablarga (standart va x.k) javob berishini ta'minlash.

"Buyurtmachi":

3.3.1. Kalendar ish rejasida belgilangan tartibda lekin shartnomada imzolangan kundan e'tiboran 5 kun muddat ichida obyekt maydoni va loyiha hujjatlarini "Bosh pudratchi"ga topshirish.

3.3.2 Shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va muddatda bajarilgan joriy ta'mirlash ishlari uchun "Bosh pudratchi" ga haq to'lash.

3.3.3 "Bosh pudratchi"ning yozma talab, iltimos to'lov va e'tirozlari 5 kunlik muddat ichida o'rganilib chiqib munosabat bildirish.

3.3.4 Kalendar ish rejasida bajarilgan ishlari tegishli tartibda qabul qilib olish.

3.4. «Buyurtmachi»ning huquqlari:

3.4.1. «Pudratchi»dan bajarilgan ishlar davlat standartlari va boshqa me'yoriy xujjatlar asosida bajarilishini talab qilish;

3.4.2. «Pudratchi» tomonidan bajarilgan ishlarda aniqlangan kamchiliklarni bepul bartaraf etilishi yoki kamchiliklarni boshqa shaxs tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplanishini talab qilish;

3.4.3. O'zi tomonidan «Pudratchi»ga berilgan materiallar va boshqa ashyolar qaytarilishini talab qilish;

3.4.4. Buyurtmachining shartnomada ko'rsatilganidan boshqa huquqlari

4. TO'LOV VA HISOB-KITOBLAR

4.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 16-martdag'i №-139-soni Qaroriga asosan byudjet tashkilotlarini tovar (ish.xizmat) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalari majburiy tarzda G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng bajariladigan ishlar bo'yicha 30 kun ichida oldindan **30% to'lov (217810955,70 so'm) amalga oshiriladi va qolgan 70% to'lovi (508225563,30 so'm)** taqdim etilgan hisob-fakturalarga asosan amalga oshiriladi.

4.2. Bajarilgan ishlarda aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilmagunga qadar to'lov ishlari kechiktirilishi mumkin.

5. ISHLARNI OLIB BORISH VA KAFOLAT MUDDATI.

5.1. "Buyurtmachi" qurilish obyektiga o'z vakili "Texnik nazoratchi" tayinlaydi. U "Buyurtmachi" nomidan ishlarning hajmi va sifati, materiallari hamda boshqa ashylarni shartnoma shartlari va loyiha hujjatlari talablariga mosligini tekshirib, bajarilgan ishlar dalolatnomasini rasmiylashtiradi.

5.2. Qurilish maydonida bajarilgan Joriy ta'mirlash ishlarini loyiha hujjatlari va qurilish qonun qoidalari talablariga javob berish uchun "Bosh pudratchi" ma'sul sanaladi.

5.3. Obyekt va unga kiradigan muhandislik tizimlarini qurilish materiallari, jihozlaridan foydalanish va ishlarini kafolatlik muddati tomonlar qurilishi tugallangan obyektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagandan so'ng 12 oy obyektning kafolatli muddati 24 oy deb belgilanadi.

5.4. Sifatsiz bajarilgan ishlarni qayta tiklash uchun sarf qilingan qo'shimcha harajatlar shartnoma qiymatidan tashqari bo'lib, aybdor hisobidan qoplanadi.

5.5. Sifatsiz va kamchilik bilan bajarilgan ish aniqlanganligi xususidagi dalolatnomaga bilan tomonlar kelisha olmasalar, ekspertiza tayinlanadi yoxud sud tartibi hal qilinadi.

6. QURILISHNI KONSERVATSIYALASH VA FORS-MAJOR HOLATI.

6.1. Qurilishni konservatsiyalashda taraflar majburiyatlarining ijo muddatini bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyat (fors-major) 1 oydan ortiq davom etadigan bo'lsa, qurilishni noma'lum muddatga to'xtatish (konservatsiyalash) uchun chora-tadbirlarni ko'rishni muxokama etadilar. Bir to'xtamga kelinmasa, 2 oy mobaynida taraflar shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqidirlar.

6.2. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va bu holatlar shartnoma shartlarini bajarilishiga bevosita ta'sir etsa tomonlarning javobgarlikdan ozod etilishi Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

6.3. Qurilish obyektga to'laligicha konservatsiya qilish haqidagi qaror qilingan kunga qadar bajarilgan ishlar haqi to'liq to'lanadi.

7. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI.

7.1. "Buyurtmachi" "Bosh pudratchi"ning aybi bilan qurilish grafik rejasi va loyiha shartlarida ko'rsatilgan ishlarning bajarilishi bir oydan ortiq vaqtida to'xtatilganda, ish sifati buzilganda, "Bosh pudratchi" yuridik shaxs sifati qonunda belgilangan tartiblarda aniqlanganda, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishdan asossiz bosh tortganda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

7.2. "Buyurtmachi" "Bosh pudratchi" tomonidan asossiz ravishda 1 oydan ortiq vaqt mobaynida Qurilish ishlari to'xtatilib qo'yilganda, moliyalashtirishni to'xtatib qo'yish huquqiga egadir.

7.3. Shartnomani bekor qilish haqidagi talablar taraflar bir-birini yozma ravishda xabardor qilingan holda 1 oylik muddat ichida ko'rib chiqilib, hal qilinadi. Shartnomani asossiz bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

7.4. Shartnoma bekor qilinganda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zarar va boy berilgan foydani to'laydi.

7.5. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish ikkala tomonni roziligidiga asosan yozma ravishda amalga oshiriladi.

8. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

8.1. "Buyurtmachi" "Bosh pudratchi"ga majburiyatning bajarilmagan qismi uchun o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun 0,4% miqdorida penya to'laydi. Penya bajarilmagan majburiyatning 50 % idan oshmasligi lozim.

8.2. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz bosh tortganligi uchun "Buyurtmachi" "Bosh pudratchi"ga o'zini tasdiqlashni rad etgan so'mmaning 5 % miqdorida jarima to'laydi.

8.3. "Bosh pudratchi" "Buyurtmachi"ga o'z majburiyatlarini bajarmagan qismini har bir kechiktirilgan kun uchun 0,5 % miqdorida penya to'laydi. Penya bajarilmagan majburiyatining 50 % idan oshmasligi lozim.

8.4. "Bosh pudratchi" tomonidan bajarilgan ishlar sifati shartnomada va loyihada belgilangan va boshqa qonun talablariga javob bermasa, sifatsiz bajarilgan ish hajmi qiyatining 10 % miqdorida "Buyurtmachi" ga jarima to'laydi.

8.5. "Buyurtmachi"dan olingen foydalanilmagan qurilish materiallari va boshqa ashylolar bir oylik muddat ichida qaytarilmasa, qaytarilmagan mulkning 10% miqdorida jarima qo'llanishiga sabab bo'ladi.

9. ALOHIDA QOIDALAR.

9.1. "Bosh pudratchi" o'z kuchi mablag'i bilan olib kelgan qurilish materiallari va boshqa ashylarning shartnoma va hamda loyiha talablariga mos kelishi haqida sertifikat texnik pasportlari bo'lishini ta'minlashi shart.

9.2. Qurilish materiallari va boshqa ashylolar "Bosh pudratchi" tomonidan markazlashtirilgan omborlar orqali "Bosh pudratchi" ning yozma ogohlantirish (trebovaniye) orqali beriladi.

9.3. Joriy ta'mirlash ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan transport vositalari maxsus transportlar "Yordamchi pudratchi" ixtiyorida bo'lmasa, "Bosh pudratchi" tomonidan markazlashtirilgan usulda ta'minlanadi.

9.4. Qurilish materiallari va boshqa ashylardan hamda transport vositalaridan foydalanganlik uchun hisob-kitob qilish shartnoma doirasida amalga oshiriladi.

9.5. Shartnoma loyiha hamda qonun talablariga javob bermaydigan material va uskunalardan foydalanish ta'qilanganadi.

10. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

10.1. Tomonlar:

- Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti-harakatlari/harakatsizliklarini sodir etmaydilar. - Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalar, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti-harakatlarni/harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

10.1.1. Tomonlarda ushu Shartnomaning 10.1.-bandidagi talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa – amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

11. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI.

11.1. Shartnomani amal qilish muddati shartnoma ikki tomon o'rtasida imzolanib, G'aznachilik bo'linmasi tomonidan ro'yxatga olingen kundan boshlab yuridik kuchga ega bo'ladi va **31-dekabr 2022-yilgacha amal qiladi**.

12. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI.

"Pudratchi"

Kitob tumani "BOOND" hususiy korhonasi

Adres: Kitob tuman Buyuk ipak yuli 60.

Индекс: 180700

H/r: 20208000005084562001

INN: 306375454

Bank: HAB "Trans Bank" f/l Qarshi.

MFO: 01109

OKED: 41201

Tel-99600065

Rahbar:

B.Muminov

(ozmu)



"Buyurtmachi"

Kitob tumani Tibbiyot birlashmasi

Katta yul -123 uy, INN: 200693709

Shxr: 100022860102327073101054012

Markaziy bank BBXKKM, MFO-00014

O'zbekiston Respublikasi Moliya

Vazirligi Gaznachiligi INN: 201122919

x/r-23402000300100001010

tel-755426207



Rahbar v/b:

Z.Hayrullaev

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi. Shartnoma

2. Loyihaning nomi. Joriy ta'mirlash

Kitob tuman tibbiyat birlashmasi va Kitob tumani "BOOND" xususiy korxonasi o'rtaida tuziladigan umumiy qiymati 726036519 (Yetti yuz yigirma olti million o'ttiz olti ming besh yuz o'n to'qqiz) so'mlik Tibbiyat birlashmasiga qarashli Ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi (bolalar bo'limi) loyiha-smeta hujjatlari asosida joriy ta'mirlash ishlarini bajarib berish to'g'risidagi № 5-sonli shartnoma loyihasi

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Kitob tuman tibbiyat birlashmasi tomonidan, markazga 16-sentabr 2022-yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi (Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi) qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan(moliyaviy hisob-kitoblar ekspertiza tarkibiga kirmaydi) va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



N.Ashurov

2022-yil 20-sentabr



**KITOB TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASINI JORIY TAMIRLASH UCHUN ENG YAHSHI
TAKLIFLARNI TANLASH O'TKAZISH BO'YICHA KOMISSIYA YIG'LISH**
B A Y O N N O M A S I №-15

Kitob tuman

2022 yil «16» sentyabr

Ishtirok etdilar:

1.Xayrullayev Ziyodulla -

Kitob tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i-

Rais

2. Xoliqov Aktam-

Kitob tuman tibbiyot birlashmasida vrach metodisti-

Kotib.

3.Toshpulatov Shuhrat

Kitob tuman tibbiyot birlashmasida iqtisodchisi-

A'zo

4.Xasanov Ergash

Kitob tuman tibbiyot birlashmasida terapiya bo'lim mudiri - A'zo

5.Sultonov Akram

Kitob tuman tibbiyot birlashmasida dorixona mudiri,- A'zo

6.Bobomurodov Ilhom

Kitob tuman tibbiyot birlashmasida jarroxlik bo'lim mudiri,- A'zo

7.Muxammadiyev Suhrob

Kitob tuman tibbiyot birlashmasida bosh iqtisodchi,- A'zo

8.Sherov Ruslan

Kitob tuman tibbiyot birlashmasida hisobchi-

A'zo

KUN TARTIBI:

**Kitob tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli KTMP(bolalar poliklinikasida) Joriy ta'mirlash
ishlarini bajarish bo'yicha eng yahshi taklifni tanlash (tender) o'tkazish bo'yicha:**

Birlashma tomonidan **29.08.2022** yilda O'zbekiston Respublikasi Tovar va xom-ashyo birjasini electron tartibda eng yahshi takliflar bo'yicha "Kitob tuman tibbiyot birlashmasi KTMP (bolalar poliklinikasida) joriy tamirlash bo'yicha № 22110012144412 – lot raqami bilan e'lon joylashtirildi. Mazkur lot bo'yicha 14.09.2022 yildagi eng yahshi takliflarni tanlash savdosini o'tkazish bo'yicha davlat xaridlari komissiyasining elektron portal orqali shakllangan "Kitob tuman tibbiyot birlashmasini joriy tamirlash bo'yicha" bayonnomasiga asosan e'lon yakuniga ko'ra Komissiya a'zolari tomonidan CHP«BOOND » g'olib deb topilganligini inobatga olib

QAROR QILINDI:

1.O'zbekiston Respublikasining 2021 yi 22 apreldagi "Davlat xaridlari tug'risida"gi 684-sonli Qonuning 62-moddasi 3-bandiga asosan komissiya bayonnomasi davlat xaridlari elektron tizimiga muxokoma qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirildi. Ikki ish kuni davomida davlat xaridlari elektron tizimiga joylashtirilgan bayonnomasi bo'yicha xech qanday e'tirozlar yoki qo'shimcha takliflar kelib tushmaganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2.Birlashma bosh xisobchisi E.Xamdamovga:

Yuqoridagilardan kelib chiqib xamda komissiya a'zolarining 14.09.2022 yildagi elektron bayonnomasiga asosan g'olib CHP«BOOND » bilan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda shartnoma tuzilsin.

1.Xayrullayev Ziyodulla



2. Xoliqov Aktam-

3.Toshpulatov Shuhrat

4.Xasanov Ergash

5.Sultonov Akram

6.Bobomurodov Ilhom

7.Muxammadiyev Suhrob

8.Sherov Ruslan



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Қашқадарё вилояти

180100, Qarshi Shahri, I.Karimov shox ko'chasi 60a-uy. Tel/Faks (375) 221-06-65, 221-10-90 E-mail:
kashdavekspertiza@mail.ru. www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Eshbabayev Maxmud Mustafayevich

Sana: 22-08-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 57817

Obyekt nomi «Kitob tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli Bolalar poliklinikasi binosini joriy ta'mirlash ishlari»

Buyurtmachi - Kitob tumani tibbiyot birlashmasi

Bosh loyihachi - Dizayn Shahri-Kesh X/F

Litsenziya АЛ-001160

Moliyalashtirish manbai - mahalliy budget mablag'lari hisobidan

Bosh pudratchi - Tanlov savdolari orqali aniqlanadi

Qurilish turi Joriy ta'mir

Murojaat raqami: № 56277

1. Loyihalash uchun asos

1.1. Kitob tumani tibbiyot birlashmasi bosh shifokori Z.Xayrullaev va ishchi komissiya a'zolari tomonidan tasdiqlangan 18 avgust 2022 yildagi nuqsonlar dalolatnomasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. Nuqsonlar dalolatnomasi asosida tuzilgan: mahalliy va yig'ma manba varaqlari, joriy narxlarda qurilish xarajatlarini hisoblash yig'ma hisob - kitob.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

Nuqsonlar dalolatnomasi asosida quyidagi ishlar bajarilishi lozim:

Ta'mirlash ishlari: nuqsonlar dalolatnomasida yozilgan 1-banddan 14-bandgacha bo'lgan ish turlari.

Tashqi pardozlash ishlari: nuqsonlar dalolatnomasida yozilgan 15-banddan 23-bandgacha bo'lgan ish turlari.

Issiqlik tizimini ta'mirlash ishlari: nuqsonlar dalolatnomasida yozilgan 24-banddan 32-bandgacha bo'lgan ish turlari.

Isitish qozonlari uchun uy: nuqsonlar dalolatnomasida yozilgan 33-banddan 38-bandgacha bo'lgan ish turlari.

Sovuq suv tizimini ta'mirlash ishlari: nuqsonlar dalolatnomasida yozilgan 39-banddan 44-bandgacha bo'lgan ish turlari.

Elektr yoritish tizimini ta'mirlash ishlari: nuqsonlar dalolatnomasida yozilgan 45-banddan 52-bandgacha bo'lgan ish turlari.

Xozerokni ta'mirlash ishlari: nuqsonlar dalolatnomasida yozilgan 53-banddan 55-bandgacha bo'lgan ish turlari.

Obodonlashtirish ishlari: nuqsonlar dalolatnomasida yozilgan 56-banddan 63-bandgacha bo'lgan ish turlari.

Asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar.

Ob'ektning smeta qiymati buyurtmachi xarajatlarisiz QQS bilan joriy narxlarda – **726 348,596 ming so'm.**

Qurilish ishchilarining mehnat xarajatlari – **6 342,803 kishi-soat.**

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1.Muhandislik kommunikatsiyalari mavjud emas.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1.Loyiha manfaatdor tashkilotlar bilan kelishilishi kerak.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1 Smeta qismi buyicha.

Smeta hujjatlarini ko'rib chiqish jarayonida ekspert tomonidan aniqlangan xato va kamchiliklar, loyiha tashkiloti tomonidan o'zgartirish va tuzatishlar kiritilishi natijasida to'g'irlanib qayta to'ldirildi: Taqdim etilgan smeta hujjatlariga ko'ra, qurilish qiymati QQS (qo'shimcha qiymat solig'i) bilan **726 348,596 ming so'mni** tashkil etgan bo'lib, ekspertiza natjasiga ko'ra, **726 348,596 ming so'm** qiymatda buyurtmachi xarajatlarisiz belgilandi, shu jumladan:

Asbob va uskunalar - 17 880,600 ming so'm;

Qurilish-montaj ishlari - 613 726,875 ming so'm;

QQS - 94 741,121 ming so'm;

Ishchi mexnat xarajatlari - 6342,803 kishi-soat;

Buyurtmachi loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim. Shartnoma bo'yicha import texnologik uskunalarni sotib olish, xamda yetkazib berish va u bilan bog'liq xarajatlari ekspertiza tomonidan ko'rilmaydi. Smeta hujjatlarida ko'rsatilgan pudratchining boshqa harajatlari miqdori bo'yicha «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK Qashkadaryo filiali majburiyatini o'z zimmasiga olmaydi. Buyurtmachiga qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi: - qurilish materiallari (buyumlar, konstruksiyalar, mebel va maishiy texnikalar) va uskunalar narxini mintaqaviy bozorda shakllangan narxlar asosida ko'rib chiqish.Yakuniy qurilish qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqatda (po faktu) bajarilgan ishlar va nazorat o'ichovlari natijalari asosida aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentyabrdagi 579-soni qaroriga muvofiq, 1-ilova, 3-bob, 29-bandiga asosan, «Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaxarsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyixa yechimlariga buyurtmachi hamda loyixa tashkiloti javobgardir ».

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda « **Kitob tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli Bolalar poliklinikasi binosini joriy ta'mirlash ishlari** » smeta hujjatlari keyingi ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Ob'ektning smeta qiymati buyurtmachi xarajatlarisiz QQS bilan joriy narxlarda - **726 348,596 ming so'mi**.

Qurilish ishchilarining mehnat xarajatlari - **6 342,803 kishi-soat**.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11 iyundagi 261-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ob'ektlarni qurish qiymatini shartnomaviy joriy narxlarda belgilash tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizom" va Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 26 apreldagi 243-sonli qaroriga ko'ra, ob'ektning tavsiya qilinayotgan boshlang'ich qiymati tanlov savdolarini o'tkazish uchun mo'ljallangan va shartnoma tuzish uchun asos bo'lmaydi.

Bosh mutaxassis: Jarkix Natalya Petrovna

Ishtirokchi ekspertlar:

SAFAROV RASHID XXX

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 144412 на приобретение Китоб тумани тиббиёт бирлашмасида жорий таъмирлаш ишларини бажариш

Способ проведения электронный

Дата 14.09.2022

Время рассмотрения 14.09.2022 09:17

Конкурсная комиссия Китоб туман Тиббиёт бирлашмаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	XAYRULLAYEV ZIYODULLO MUYIDDINOVICH	Boshliq urimbosari	Kitob ttb
Секретарь комиссии	XOLIKOV AXTAM ZAXIDOVICH	Vrach statist	Kitob ttb
Член комиссии	XASANOV ERGASH BARATOVICH	Terapiya bulimi boshligi	Kitob ttb
Член комиссии	SULTONOV AKRAM MAXMARAJABOVICH	Bulim boshligi	Kitob ttb
Член комиссии	TOSHPULATOV SHUXRAT SUYUNOVICH	Iqtisodchi	Kitob ttb
Член комиссии	MUXAMMADIYEV SUXROBJON SALOXIDDINOVICH	Boshliq urimbosari	Kitob ttb
Член комиссии	SHEROV RUSLAN RAVSHANOVICH	бухгалтер	Китоб ТТБ
Член комиссии	BOBOMURODOV ILXOM SHODIYEVICH	Bulim boshligi	Kitob ttb

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 14.09.2022 года № лота 144412.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 95.00 / Весовой коэф. ценовой части: 5.00)

Мин. балл: 95

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту нежилых зданий
Подробное описание	Ремонт
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	726 348 596.00
Стартовая сумма	726 348 596.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Korxonaning bir yillik kassa aylanmasi (kassa oborot), ishchilar soni, soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha qarzdorlikning mavjud emasligi , o'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi va insofsiz ijrochilarining yagona reyestrida qayd etilmaganligi

Тип: Числовое значение

Описание: Korxonaning bir yillik kassa aylanmasi (kassa oborot), ishchilar soni, soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha qarzdorlikning mavjud emasligi , o'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi va insofsiz ijrochilarining yagona reyestrida qayd etilmaganligi

Обязательность: Критично

Требование заказчика: Не более: 100 Шт

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
YAKKABOG ORZUSI XK	95	100	95	Системная		
ЧП BOOND	95	100	95	Системная		

Критерий №2 Лойиха сметаларини тулик урганиб чикиб тасдикланган смета хужжатларига асосан таклиф бериш(оффёрта варианта)

Тип: Бинарное значение

Описание: Лойиха сметаларини тулик урганиб чикиб тасдикланган смета хужжатларига асосан таклиф бериш(оффёрта варианта)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
YAKKABOG ORZUSI XK	100	1	94	Экспертная		
ЧП BOOND	100	1	95	Экспертная		

Критерий №3 texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligiga oid ma'lumotlar texnik va tijorat takliflari

Тип: Текстовое значение

Описание: texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligiga oid ma'lumotlar texnik va tijorat takliflari

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
YAKKABOG ORZUSI XK	95	суралган хужжатлар тақдим этилди	94	Экспертная		
ЧП BOOND	95	суралган хужжатлар тақдим этилди	95	Экспертная		

Критерий №4 Жорий таъмирлаш ишларини бажариш буйича талаб этилган бинони тулик урганиб борганилик(урганганилик тугрисида) тугрисида масъул шахслар томонидан тафсифномасини олиш.

Тип: Текстовое значение

Описание: Жорий таъмирлаш ишларини бажариш буйича талаб этилган бинони тулик урганиб борганилик(урганганилик тугрисида) тугрисида масъул шахслар томонидан тафсифномасини олиш.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
YAKKABOG ORZUSI XK	95	суралган хужжатлар тақдим этилди	94	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП BOOND	95	суралган хужжатлар тақдим этилди	95	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
YAKKABOG ORZUSI XK	726 348 596.00	726 222 379.00 UZS	726 222 379.00	00.00	726 222 379.00	13.09.2022 20:26:07	4.99872
ЧП BOOND	726 348 596.00	726 036 519.00 UZS	726 036 519.00	00.00	726 036 519.00	13.09.2022 20:40:36	5

Заказчик вправе применить преференцию в отношении отечественных производителей

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
YAKKABOG ORZUSI XK	93.0259	4.99872	98.02462
ЧП BOOND	93.76595	5	98.76595

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 144412 от 14.09.2022 года на приобретение Китоб тумани тиббиёт бирлашмасида жорий таъмирлаш ишларини бажарыш определила победителем:

ЧП BOOND
306375454

и резервный исполнитель: YAKKABOG ORZUSI XK (302901934)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	XAYRULLAYEV ZIYODULLO MUYIDDINOVICH	Согласен	
Член комиссии	XASANOV ERGASH BARATOVICH	Согласен	
Член комиссии	SULTONOV AKRAM MAXMARAJABOVICH	Согласен	
Член комиссии	TOSHPULATOV SHUXRAT SUYUNOVICH	Согласен	
Член комиссии	MUXAMMADIYEV SUXROBJON SALOXIDDINOVICH	Согласен	
Член комиссии	BOBOMURODOV ILXOM SHODIYEVICH	Согласен	
Член комиссии	SHEROV RUSLAN RAVSHANOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП